

O‘TKIR HOSHIMOVNING "YANGA" HIKOYASIDA INSONIYLIK IFODASI

Gulrang Jabborova

O‘zbekiston Milliy Universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning "Yanga" hikoyasidagi bosh g‘oya va obrazlar xarakteristikasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: hikoya, xarakter, Akmalxon, didaktika, obraz, syujet, badiiyat.

Kirish

Adabiyot qadim davrlardan buyon boshqa sohalardan o‘zining insonga kuchli ta’sir eta olish qobiliyati bilan ajralib turadi. Bunda ayniqsa, asrlar mobaynida yaratilgan badiiy asarlar, roman, qissa va hikoyalarning o‘rni beqiyos. Ushbu janrlar ichida ayniqsa hikoya janri ko‘pincha muallifning hayotiy tajribasi asosida yaralishi, didaktik g‘oyalar ustalik bilan singdirilishi, hajman qisqa ammo mazmunan juda ko‘p ma’noga egaligi bilan boshqa adabiy janrlardan farq qiladi. O‘tkir Hoshimovning "Yanga" hikoyasida ham xuddi shunday odob- axloq va insoniylik tuyg‘ulari bosh planda yoritilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

O‘zbek xalqining atoqli adibi O‘tkir Hoshimov asarlari yurtimizda allaqachon o‘z kitobxonlari ko‘nglidan joy olgan. Sababi, O‘tkir Hoshimov asarlarining qahramonlari "ideal" emas, ammo samimiyat barq urib turadigan, sodda va chin insoniylikka ega insonlar. Shuning uchun ham, Shukur Xolmirzayev, «O‘tkir – samimiy yozuvchi» deya ta’riflagan bo‘lsa, ajabmas... [1] Shu kungacha O‘tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar", "Nur borki soya bor " romanlari, "Bahor qaytmaydi" , "Dunyoning ishlari" , " Ikki karra ikki besh" qissalari va "Muhabbat", "Urushning so‘nggi qurboni" hikoyalari kabi qator asarlari o‘zbek kitobxonlari tomonidan sevib o‘qiladi. Chindan O‘tkir Hoshimov ta’kidlaganidek : “Kitobxoni yo‘q asar egasi tashlab ketgan hovliga o‘xshaydi” [2] Qanday fan sohasi bo‘lishidan qat’i nazar, hikoya qilish haqida gap ketganda, ular har doim hikoyaning obyektiv asosini (sof faktlar va voqelikni) emas, balki hikoya qiluvchining ishini – u faktlarni ko‘rganini, u qanday bo‘lganini anglatadi. [3] Bundan ma’lum bo‘ladiki O‘tkir Hoshimovning "Yanga" hikoyasi qahramonlarini ham yozuvchining kuzatishlari natijasi yoxud asar syujetini esa adibning bevosita guvohi bo‘lgan voqeasi deyishimiz mumkin. Qolaversa, hikoya janri aksariyat hollarda yozuvchining shaxsiy kuzatishlari va hayotiy tajribalari mahsuli sanaladi Adibning, "Yanga" hikoyasi ham o‘tkir

didaktik g'oyalar bilan singdirilgan. Hikoyada ishtirok etgan har bir personajda esa milliy ruh yaqqol namoyon bo'ladi. Ayniqsa Akmalxonning yangasi obrazi chinakam o'zbek ayolini gavdalantiradi. Ayniqsa O'tkir Hoshimov ushbu obrazning har bir kichik detallarigacha mukammal ta'riflaydi. Ayniqsa, uning bolalarcha iymonlari ham uning naqadar beg'ubor va soddadil ekanidan dalolatdir. Bundan tashqari, ushbu hikoyada nafaqat insoniylik balki, millatimizga xos bo'lgan eng nozik muammolardan biri qaynona- kelin munosabatlari ham yoritilgan. Shuning uchun ham filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Akram Toshpo'latov O'tkir Hoshimov haqida: "U epik tur rivojidadagi xizmatlari evaziga "so'z zargari" degan nomga musharraf bo'lgan. Bir qator hikoya, qissa va romanlari, adabiy-badiiy saboqlari bilan adabiyotimizda yorqin iz qoldirgan keng mushohadali, donishmand yozuvchidir",— deya fikr bildirgan.[4]

Natijalar

Hikoyaning asosiy qahramonlaridan bo'lgan Akmalxon abraziga to'xtalsak; o'qimishli, jamiyatda o'z o'rnida ega sog'lom fikrli inson. Ammo uning o'qishi barchada bo'lgani kabi oson kechmagan. Sababi, otasi juda yoshligida vafot etgan buning ustiga onasi ham talabalik yillarida olamdan o'tadi. Katta hovlidagi barcha uy- ro'zg'or ishlarini yangasining yolg'iz o'zi eplari edi. Qizig'i shundaki, yangasi uyning barcha yumushlarini bir o'zi bajarsa-da biror marta Akmalxonga minnat yoki zarda qilmasdi. Hattoki, onasining yo'qligini sezdirmaslik uchun har kuni uning cho'ntagiga tushlik puli ham solib qo'yardi. Inson eng qiyin damda o'ziga qilingan olijanoblikni unutmaydi. Akmalxonda ham xuddi shunday holat ro'y berdi. Chindan ham Shukur Xolmirzayev ta'kidlaganidek: hikoyaning o'zi ham har bir asar kabi o'ziga xos bir olam, sen – yozuvchi – ana shu olam ustida turib, undagi o'zing "bino etgan sarguzashtlarni, Flober aytmish "insonlar taqdirini kuzatuvchi xudo singari kuzatasan", lekin albatta, ular ishiga hadeb bosh suqavermaysan. ...hikoyada yechim yozuvchining dunyoni zuhur etishi, inson ruhining ichki va sirtqi qonuniyatlarini nechog'lik bilishi, qolaversa – mahorat-professionallik, ijod texnikasini qanchalik egallagani bilan bog'liq masaladir.[5] Darhaqiqat, hikoya voqealar rivojining favqulodda kutilmaganligi, personajlar xarakterining o'zgachaligi yozuvchining hikoyaga qay darajada professional yondashganini ko'rsatib beradi.

Muhokama

Olimjon Davlatov aytib o'tganidek: "Har bir millatning o'ziga xos adabiy didi bo'ladi. Arab o'quvchisini hayajonga solgan narsani ingliz o'quvchisi sovuqqonlik bilan qabul qilishi mumkin, fransuz kitobxonni «klassika» deb qabul qilgan asar o'zbek o'quvchisi uchun faxsh va zo'ravonlikdan boshqa narsa emas"... [6] Chindan ham shunday, kitobxon badiiy asarni o'qir ekan asarning unga ta'siri bevosita uning millati, diniga ham bog'liqdir. O'tkir Hoshimovning

ushbu hikoyasini tahlil qilganda ixtiyorsiz oddiy xalqimizning hayotiga oyna tutgandek bo‘lamiz. Ayniqsa, Ushbu hikoyada ovsinlarning bir-biriga qarshi bo‘lgan ziddiyatlari ham ustalik bilan yoritiladi. Akmalxonning ayoli Klara ham ko‘pchilik ayollar singari erining qarindoshlariga, yaqinlariga yordam berishini istamaydi. Ammo,erining aslida shu insonlarning yordami bilangina shu darajaga yetib kelganidan xabari yo‘q (yoki xabari bo‘lsa ham erini yordam berishga majbur emas ular vazifalarini bajarishgan deb biladi). Klara ovsinining ko‘ngli ranjishidan ham cho‘chimasdan imkoni bor bo‘la turib yordam berishni istamaydi. Axir,inson insonga bu hayotda og‘ir damlarida suyanish uchun berilgan Allohning ne‘mati emasmi? Nimaga biz insonlar yaqin kishilarimiz qiyin vaziyatda qolganda yordam qo‘lini cho‘zishdan ko‘ra yuz o‘girishni afzal ko‘ramiz?! Hikoyadagi asosiy personaj bo‘lgan Akmalxonning yangasi hayotimizdagi chin insoniy fazilatlarga ega kishilarning ramzi sanaladi. Ayniqsa asar kulminatsiya nuqtasi sanalgan ushbu parcha ham buni yaqqol tasdiqlaydi.

— Rahmat, Akmalxon, — dedi yangasi ohista tovushda. Uning ovozida zarda ham, o‘kinch ham yo‘q edi. — Bolalarning kiyimi yetarli, — dedi u dasturxon popugini o‘ynab. — Boshqa narsaga zarur bo‘lib qoluvdi... Bilasiz, indinga oyim vafot etgan kunlariga o‘n yil to‘ladi. Shunga uzoq-yaqin qarindoshlarni chaqirmoqchiydik. Ozroq yetmay turuvdi... [7] Insonning bu hayotda o‘zidan yaxshi nom qoldirishichalik buyuk baxt bo‘lmasa kerak?! Sababi bizning umr bo‘yi qilgan harakatlarimiz, mexnatlarimiz barchasi faqatgina chin inson bo‘lish yo‘lidagi urinishlardir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, "Yanga" hikoyasi o‘tkir tarbiyaga ega,insonni yaxshilik qilishga chaqiruvchi axloqiy badiiy asarning go‘zal namunasi. Buning ustiga, asar bosh qahramoni "yanga" obrazi esa o‘z harakatlari bilan insonni hayratga soladi. Bir inson ota- onasi ruhi shod bo‘lishi uchun masjid qurishini yoki ho‘kiz so‘yib xudoyi qilishini tushunish mumkin ammo qaynonasining ruhini shod qilish uchun eng og‘ir ishlardan bo‘lgan birovdan yalinib qarz so‘rash yukini gardaniga olgan kelinni tasavvur qilish qiyin. Garchi bugungi kunda chin insoniy fazilatlar sohibi bo‘lgan bunday kishilar kam bo‘lsa-da butun yer yuzida yo‘q emas. O‘tkir Hoshimovning ushbu hikoyasi bugungi kun insoni sifatida barchamizga o‘rnak sifatida yozilgan bo‘lsa ajab emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. АДАБИЁТ – САККИЗИНЧИ МУЎЪЖИЗАОЛИМЖОН ДАВЛАТОВ
2. Akram Toshpo‘latov.O‘tkir Hoshimov: “Kitobxoni yo‘q asar egasi tashlab ketgan hovliga o‘xshaydi”.
3. Hikoya tahlili: tushunchasi va qo‘llanilishi,Fan 2024. Angel Austin.

4. Akram Toshpo‘latov. O‘tkir Hoshimov: “Kitobxoni yo‘q asar egasi tashlab ketgan hovliga o‘xshaydi”
5. “Шарқ юлдузи”, 1971 йил, 1-сон.
6. АДАБИЁТ – САККИЗИНЧИ МЎЪЖИЗА ОЛИМЖОН ДАВЛАТОВ.
7. "Yanga" hikoya. O‘tkir Hoshimov. ziyo.com